

UO‘K(UDC, УДК): 82.091

**“BOBURNOMA”DA TARIXIY SHAXSLAR QIYOFASINING  
YORITILISH MEZONLARI<sup>8</sup>**

**Muhammadzokirova Mohinur Muhtorjon qizi**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent  
davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti  
tayanch doktoranti  
Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: [mohinurmuhammadokirova@gmail.com](mailto:mohinurmuhammadokirova@gmail.com)

ORCID ID:0009-0008-4741-0361

---

**ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar qiyofasining yoritilish mezonlari badiiy-ilmiiy nuqtayi nazardan chuqur tahlil etiladi. Tadqiqotda asarda 500 dan ortiq tarixiy shaxslar haqida mufassal ma’lumot berilgani qayd etilib, ulardan ayrimlarining tasviri muayyan konseptual tizim asosida shakllangani asoslab beriladi. Xususan, tavallud va nasl-nasab, shakl-shamoyil, fe’l-atvor, siyosiy va harbiy faoliyat, jumladan jang va yurishlardagi ishtiroki, egallagan hududlari hamda avlodlari kabi mezonlar shaxs qiyofasini kompleks ochishda muhim omil sifatida talqin etiladi.

Shuningdek, maqolada tarixiy obrazlarning asar kompozitsiyasida turli voqea-hodisalar bilan uzviy bog‘liq holda tasvirlanishi, bu orqali ularning individual va ijtimoiy qiyofasi dinamik tarzda ochib berilishi ta’kidlanadi. Ayniqsa, bir obrazni boshqa obrazlar vositasida yoritish tamoyili muallifning badiiy tafakkuri mahsuli sifatida baholanib, xarakter yaratishda qiyosiy va kontrast usullar samarali qo‘llangani ko‘rsatib o‘tiladi. Natijada, “Boburnoma”dagi tarixiy shaxslar tasviri nafaqat faktologik aniqlik, balki yuksak badiiy-estetik mukammallik bilan ajralib turuvchi hodisa sifatida e’tirof etiladi.

---

**KALIT SO‘ZLAR**

“Boburnoma”, tarixiy shaxslar, xarakter, konseptual tizim, asar kompozitsiyasi, epik asar, qahramonlar portreti.

Received: January 30, 2026  
Accepted: February 18, 2026  
Available online: May 10, 2026

---

<sup>8</sup> **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Muhammadzokirova M. “Boburnoma”da tarixiy shaxslar qiyofasining yoritilish mezonlari. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 3(11) — B. 78-92.

## CRITERIA FOR CREATING THE IMAGE OF HISTORICAL FIGURES IN “BABURNAMA”

**Mukhammadzokirova Mokhinur Mukhtorjon kizi**

Basic doctoral student of  
Tashkent state university of uzbek language and  
literature named after Alisher Navoi  
Tashkent, Uzbekistan

E-mail: [mohinurmuhammadzokirova@gmail.com](mailto:mohinurmuhammadzokirova@gmail.com)

ORCID ID:0009-0008-4741-0361

---

### ABSTRACT

This article provides an in-depth analysis of the criteria for portraying historical figures in the “Baburnama” from an artistic and scientific perspective. The study notes that the work provides detailed information about more than 500 historical figures, and it is justified that the image of some of them was formed on the basis of a certain conceptual system. In particular, criteria such as birth and lineage, appearance, character, political and military activities, including participation in battles and campaigns, occupied territories, and descendants are interpreted as important factors in the comprehensive disclosure of a person’s image.

The article also emphasizes that historical characters are depicted in the composition of the work in close connection with various events, thereby dynamically revealing their individual and social appearance. In particular, the principle of illuminating one image through other images is evaluated as a product of the author’s artistic thinking, and it is shown that comparative and contrast methods are effectively used in creating character. As a result, the depiction of historical figures in the “Baburnama” is recognized as a phenomenon distinguished not only by factual accuracy but also by high artistic and aesthetic perfection.

### KEYWORDS

“Baburnama”,  
historical figures, character,  
conceptual system,  
composition of the work, epic  
work, portrait of heroes.

## КРИТЕРИИ ИЗОБРАЖЕНИЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ЛИЧНОСТЕЙ

## В «БАБУРНАМЕ»

Мухаммадзокирова Мохинур Мухторжон кизи

докторант

Ташкентского государственного  
университета узбекского языка и литературы

имени Алишера Навои

Ташкент, Узбекистан

E-mail: [mohinurmuhammadokirova@gmail.com](mailto:mohinurmuhammadokirova@gmail.com)

ORCID ID: 0009-0008-4741-0361

## АННОТАЦИЯ

## КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

В данной статье с художественно-научной точки зрения глубоко анализируются критерии репрезентации образов исторических личностей в произведении «Бабурнаме». В исследовании отмечается, что в этом произведении Бабура представлена подробная информация о более чем 500 исторических личностях, и обосновывается, что в изображении некоторых из них может быть выявлена определенная концептуальная система. В частности, такие критерии, как рождение и происхождение, внешний вид, характер, политическая и военная деятельность, в том числе участие в сражениях и походах, занимаемые территории, потомки и их судьба, интерпретируются как важные факторы комплексного раскрытия образа личности.

Также в статье подчеркивается, что исторические образы в композиции произведения находятся в неразрывной связи с различными событиями, благодаря чему динамично раскрываются как их индивидуальные черты, так и социально обусловленные особенности. В частности, в работе принцип освещения одного образа посредством других образов оценивается как результат проявления авторского художественного мышления, что приводит к заключению об эффективном использовании в «Бабурнаме» приемов сравнения и контраста. В результате изображение исторических личностей в «Бабурнаме» признано явлением, отличающимся не только фактологической точностью, но и высоким художественно-эстетическим совершенством.

«Бабурнаме», исторические личности, характер, концептуальная система, композиция произведения, эпическое произведение, портрет героев.

## KIRISH

Epik asarni qahramonlar portreti va xarakteri tasviridan ayri tasavvur etib bo‘lmaydi. Boisi, *“Hayot adabiyotning predmetidir, asosidir, ustunidir, yuragidir”* (Umurov H., 2011, 355). Shu jihatdan adabiyot uchun qahramonlar tasviri hayotni badiiy aks ettirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Har bir asardagi qahramon xarakteri va tasviri muallifning uslubi, ijodiy yo‘nalishi va badiiy mahoratini namoyon etadi.

“Boburnoma”da besh yuzdan ortiq turli mavqedagi shaxslar tilga olinadi. Badiiy asarda katta-kichik obraz bo‘lmaganidek, bu asarda ham har bir personaj o‘ziga xos joziba hamda xarakteri bilan ajralib turadi. *“Bobur har bir tarixiy shaxs va uning faoliyatini puxta tahlil etadi. Uning ma’lumotlarida shaxsning kimligi, fe’l-atvori, kishilarga va oilaga munosabati, qiliqlari, el orasidagi obro‘-e’tibori, faoliyati, uning ijobiy, salbiy yoki mulohazatalab xususiyatlarigacha faqat eng muhim tomonlari saralab, talqin etiladi”* (Bobur, 2008, 18). Shuningdek, muallif asarda tarixiy shaxslar tasviri bilan hamohang holatda o‘z davrining siyosiy, ijtimoiy, axloqiy mezonlari haqida ham batafsil ma’lumot beradi.

## ASOSIY QISM

Muallifning tarixiy shaxslar qiyofasini yaratish mahoratini quyidagi mezonlar asosida o‘rganishni maqsad qildik:

1. Ma’lum tizim asosida tasvirlash (tavalludi va nasl nasabi, shakl-shamoyili, fe’l-atvori, jang va urushlari, viloyatlari, avlodi, xotinlari va kanizlari, amirlari kabi);
2. Asarning turli joylarida, turli yillar voqealari bilan bog‘liq holda tasvirlab takomilga yetkazish;
3. Ma’lum obrazni boshqa obrazlar orqali ochib berish.

Yuqorida ta’kidlanganidek, “Boburnoma”da besh yuzdan ortiq tarixiy shaxslar tilga olinadi. Ulardan Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Boysunqur Mirzo va Sulton Husayn Mirzo qiyofalarini yaratishda tavalludi va nasl nasabi, shakl-shamoyili, fe’l-atvori, jang va urushlari, viloyatlari, avlodi, xotinlari va kanizlari, amirlari tartibidagi tizimga asoslanilgan.

Asarda Umarshayx Mirzo haqida gap borar ekan, yuqorida ta’kidlangan tizimning tavalludi va nasl-nasabi qismida uning 1455-yilda Samarqandda Sulton Abusaid Mirzo oilasida tug‘ilgani, Amir Temurning beshinchi avlod vakili ekanligi va otasi Sulton Abusaid Mirzo tomonidan unga Andijon berilgani haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Fe’l-atvori ruknida esa Umarshayx Mirzo ancha murakkab, qarama-qarshi fazilatlar egasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ta’riflanishicha, Umarshayx Mirzo hanafiy mazhabida, pokiza e’tiqodli kishi bo‘lgan. Besh vaqt namozini tark

qilmagan. Umriy qazolarini tamom qilib, asosan, tilovat bilan mashgʻul boʻlgan. Ushbu xislatlarni muallif otasining eng ijobiy fazilatlariga kiritadi.

Rukn oxirida esa, Umarshayx Mirzoning yuqoridagi xislatlariga zid tarzda amalga oshirilgan xatti-harakatlarini ham yashirmaydi: *“Soʻngralar maʼjun koʻproq ixtiyor qilur erdi. Maʼjuniylikda kalla xushk boʻlur edi, yetim shior edi, laʼbi dagʻi bisyor edi, hamisha nard oʻynar edi, gohi qimor ham qoshur edi”* (Bobur, 2020, 15).

Asardagi Umarshayx Mirzo tasvirining oʻziga xos jihatlaridan yana biri shundaki, muallif gap oʻz otasi haqida borayotganiga qaramay, u boshqa shaxslarni tavsiflashda qoʻllagan baholovchi mezon va ifodalarni Umarshayx Mirzo qiyofasi tasviriga nisbatan ham izchil tarzda tatbiq etadi. Aniqroq qilib aytganda, muallif oʻz nomini “avlodi” ruknidagina tilga oladi, shundagina Bobur Umarshayx Mirzoning oʻgʻli ekanligi oʻquvchiga ayon boʻladi: *“Avlodi: uch oʻgʻul, besh qiz mirzodin qolib edi. Bori oʻgʻlonlaridin uluq men – Zahiriddin Muhammad Bobur edim; mening onam Qutluq Nigorxonim edi... Bori qizlaridin ulugʻ Xonzodabegim edi, mening bila bir tuqqon erdi, mendin besh yosh ulugʻ erdi”* (Bobur, 2020, 16). Shunda ham muallif Umarshayx Mirzoni “ota”, Xonzodabegimni esa “opa” deb tilga olmaydi. Umarshayx Mirzoning xotinlari va kanizlari ruknida keltirilgan Qutlugʻ Nigorxonim tasvirida ham mazkur prinsip yetakchilik qiladi: *“Qutlugʻ Nigorxonim edi, Yunusxonning ikkinchi qizi, Sulton Mahmudxon, Sulton Ahmadxonning egachisi edi”* (Bobur, 2020, 18).

Shuningdek, Bobur shaxs tasvirida qarindoshlik omilini ustun qoʻymaydi, balki barcha obrazlarga nisbatan xolislik prinsipiga amal qiladi. Xususan, Bobur Umarshayx Mirzo tasvirining jang va urushlari ruknida otasining uch marotaba jang qilganini, ularning bittasida gʻalaba qozonib, qolgan ikkitasida magʻlubiyatga uchraganini ochiq-oydin, batafsil bayon etadi.

Amirlari ruknida Umarshayx Mirzoning oʻn beshta amiri haqida batafsil maʼlumot beriladi. Ushbu maʼlumotlar faqat tarixiy faktlarni sanab oʻtish uchun emas, balki muallifning otasi shaxsini psixologik va intellektual jihatdan ochib berishga xizmat qiladi. Bu tasvirlar orqali Umarshayx Mirzo shunchaki hukmdor emas, balki inson tabiatini chuqur anglay oladigan, kishilarni farqlash va baholash qobiliyatiga ega shaxs sifatida namoyon boʻladi.

Muallif ayrim amirlarning sadoqati, boshqalarining xiyonati, yana boshqalarining ojiz yoki tadbirsiz ekanini koʻrsatish orqali Umarshayx Mirzoning ularni qanday tanlagani, qanday ishonch bildirgani yoki aksincha, qaysi jihatlarida adashgani haqida bilvosita tasavvur uygʻotadi. Bu esa hukmdorning odam tanlash, inson feʼl-atvorini anglash, ijtimoiy-psixologik kuzatuvchanlik qobiliyatiga ishora qiladi.

Shuningdek, amirlar faoliyatining baholanishi orqali Umarshayx Mirzoning hayotiy tajribasi va siyosiy idroki ham ochiladi. Muallif ayrim holatlarda

amirlarning xatti-harakatlarini tanqidiy ruhda yoritadi: “*Yana biri Ali Mazidbek qavchin edi, ikki qatla yog‘iy bo‘ldi: bir martaba Axsida, yana bir martaba Toshkandta. Munofiq va fosiq va haromnamak va yaramas kishi erdi*” (Bobur, 2020, 24). Ammo bu tanqid otaga bo‘lgan shaxsiy munosabatdan emas, balki voqealarga xolis qarash tamoyilidan kelib chiqadi.

Ta’kidlash joizki, muallif nomlari tilga olingan o‘n besh nafar amirlarning uchtasiga yuqoridagi kabi tanqidiy baho beradi. Demak, amirlar haqidagi parchalar asarda ikkinchi darajali tafsilot emas, balki Umarshayx Mirzo shaxsini yanada chuqurroq ochishga xizmat qiluvchi badiiy-analitik vosita bo‘lib, uning odamshunos, kuzatuvchan va hayotiy tajribaga ega hukmdor ekanini ilmiy asosda anglash imkonini beradi.

Asar davomida Zahiriddin Muhammad amakilari Sulton Ahmad Mirzo va Sulton Mahmud Mirzo obrazlarini ham yuqorida keltirilgani kabi tizimli tarzda yoritadi. Bu jarayonda muallif otasi obrazini yoritishda qo‘llagan – real voqelikka tayanish, dalillilik, xolis baho va badiiy aniqlik kabi mezonlarga sodiq qoladi. Ularning siyosiy qarorlari, davlat boshqaruvidagi tutumi, harbiy faoliyati hamda insoniy fazilatlarini muayyan voqealar misolida yanada aniqroq va mukammalroq tasvir etadi. Xususan, Bobur Sulton Ahmad Mirzoga “*Hazrati Xoja Ubaydullug‘a irodati bor edi. Hazrati Xoja murabbiy va muqavviy edilar. Bisyor muaddab bor edi*” (Bobur, 2020, 30) - deya ta’rif beradi va Xoja suhbatida davomida ro‘y bergan bir voqea bayoni orqali amakisiga berilgan ushbu tavsifni dalillaydi:

“*Alalxusus Xoja suhbatida, derlarkim, hargiz Xoja majlisida tizi bir-biri tiziga yovutkagan emastur. Bir navbat hazrati Xoja suhbatida bar xilofi odat oyog‘ini yovutkab o‘lturubtur. Mirzo qo‘pqondin so‘ng hazrati Xoja buyurubturlarkim, mirzo o‘lturg‘on yerni boqqaylar: bir so‘ngak bor ekandur*” (Bobur, 2020, 30).

Shuningdek, muallif Sulton Ahmad Mirzoni davlat boshqaruvida odil, ahdiga sodiq va so‘zida barqaror hukmdor sifatida tasvirlar ekan, bu sifatlarni quruq ta’rif darajasida qoldirmaydi, “*Hargiz andin xilofe zohir bo‘lmadi*” – deya uning shaxsiy va siyosiy pozitsiyasini mustahkamlaydi.

Ta’kidlash joizki, muallif Sulton Ahmad Mirzoning ham ijobiy fazilatlarini bilan bir qatorda salbiy jihatlarini ham xolisona yoritadi. Sulton Ahmad Mirzoning ham insoniy zaiflikdan holi bo‘lmagan shaxs sifatida tasvirlash orqali uning murakkab ichki dunyosini ochishga intiladi: “*Hech nimarsa o‘qig‘on emas edi, omi edi*” (Bobur, 2020, 30).

“Boburnoma”da Sulton Ahmad Mirzo obrazidan farqli o‘laroq Sulton Mahmud Mirzo shaxsiyatining salbiy tomonlari ko‘proq berilgan. Mirzoning shakl-shamoyilining ilk chizgilaridanoq uning ichki dunyosiga xos ayrim qusurlar nozik,

ammo aniq ishoralar orqali yoritila boshlanadi: *“Past bo‘yluq, suyuq soqolliq, tanbal, sinchisizroq kishi edi”* (Bobur, 2020, 39).

Axloq va fe‘l-atvori ruknida esa muallif Sulton Mahmud Mirzoga “yaxshi” degan ta‘rifni beradi. Fikrimizcha, Bobur bu ta‘rif orqali Sulton Ahmad Mirzoning qator shaxsiy qusurlaridan – zulm va buzulqilik bilan ko‘p mashg‘ul ekanligi, muttasil may ichishi, ko‘p bachcha saqlashi va yana ko‘plab kamchiliklaridan boxabar bo‘lgani holda uning tartib va boshqaruvda juda yaxshi ekanligini, hisob ilmini puxta egallaganligini, bazmi, hadyasi, ziyofati va devoni juda yaxshi ekanligini ham inkor eta olmasligini ta‘kidlaydi.

Shuningdek, “amirlari” ruknida, amirlari ta‘rifida Sulton Mahmud Mirzoning odam tanimaslik xususiyati o‘z isbotini topadi: *“Xisravshoh edi. Turkistonliq qipchoqdir... Agarchi namoz qilur edi va taomda parhiz qilur edi, vale tiyra, va fosiq edi, gavdan va befahm va bevafo va haromnamak kishi edi. Besh kun o‘tar dunyo uchun bir o‘zi o‘sturg‘on valine‘matzodasini ko‘r qildi. Yana birini o‘lturdi”* (Bobur, 2020, 43). Xisravshohning ushbu mudhish qilmishining sababchisi esa Sulton Mahmud Mirzo qo‘l ostidagi amirlardan yana biri edi: *“Yana biri Vali edi... Sulton Mas‘ud Mirzoning ko‘ziga mil tortilmog‘ig‘a va Boysung‘ur Mirzoning o‘lturmakiga bois ul edi. Jam‘i elni g‘iybat qilur edi. Badzabon va fahshgo‘y va xudpisand va tiyra mag‘z mardak edi”* (Bobur, 2020, 44).

“Boburnoma”da Boysunqur Mirzo haqida ma‘lumotlar nisbatan qisqa va ixcham tarzda keltirilgan. Muallif uning tavalludi va nasl-nasabi, tashqi qiyofasi, axloqi va fe‘l-atvori, shuningdek, janglardagi ishtiroki va boshqarilgan viloyatlari haqida faqat eng zarur, qisqa-qisqa ma‘lumotlarni beradi. Bobur tasvirida Boysunqur Mirzo adolatli, kamtar, xushchaqchaq va fazilatli podshohzoda sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif Boysunqur Mirzoning nasta‘liq xatini juda yaxshi yozishini, naqqoshlikda qo‘li yomon emasligini va she‘rni ham o‘ziga xos yo‘sinda yozishini ham e‘tibordan chetda qoldirmaydi va o‘z uslubicha Samarqandda Boysunqur Mirzo she‘rlari bo‘lmagan uy kam topilishi bayoni bilan yuqoridagi fikrlarini dalillaydi: *“Samarqandta Boysung‘ur Mirzoning g‘azallari oncha shoye‘durkim, kam uy bo‘lg‘ay edikim, Mirzoning ash‘ori ul uyda bo‘lmag‘ay edi”* (Bobur, 2020, 99).

Shu bilan birga, Boysunqur Mirzo tasvirida xotinlari va kanizlari hamda amirlari ruknlari mavjud emas. Ushbu ruknlar o‘rnida muallif tomonidan Boysunqur Mirzoning Xisravshohning yurtiga kelganda amakisi Sulton Xalil Mirzoning qizini olganligi, undan o‘zga xotin va cho‘risi bo‘lmaganligi; beklari esa otasi va amakisining beklarigina ekanligi haqida qisqa ma‘lumot beriladi. Fikrimizcha, Boysunqur Mirzoning hayotdan bevaqt ko‘z yumgani va natijada istiqbolli saltanatga ega bo‘lmagani sababidan u haqidagi berilgan ma‘lumotlar juda qisqa.

“Boburnoma” matnida Sulton Husayn Mirzo obrazi eng batafsil va ko‘p qirrali tasvirlangan tarixiy shaxslardan biri hisoblanadi. Muallif bu shaxsni oddiygina voqealar ishtirokchisi sifatida emas, balki muayyan davr siyosiy, madaniy va ijtimoiy hayotini o‘zida mujassam etgan murakkab shaxsiyat sifatida yoritadi.

Avvalo Bobur Sulton Husayn Mirzoning nasl-nasabini aniq ko‘rsatib, uning temuriylar sulolasidagi o‘rnini belgilaydi: “*Valodati sekkiz yuz qirq ikkida Hiriya Shohrux Mirzo zamonida edi... Onasi Firuzabegim edi. Temurbekning nabirasi. Sulton Husayn Mirzo Mironshoh Mirzoning ham nabirasi bo‘lur edi, Sultom Husayn Mirzo karimut-tarafayn edi, asil podshoh edi*” (Bobur, 2020, 229).

Asarda keltirilgan xulqi va fe‘l-atvori rukni Sulton Husayn Mirzo obrazini chuqurlashtirishga xizmat qiluvchi muhim badiiy vositalardan biri desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Ushbu ruknda Sulton Husayn Mirzo ko‘plab masalalarda shariat qoidalariga tayanib qaror chiqaruvchi, shaxsiy manfaat yoki siyosiy qulaylikdan ko‘ra adolat va shariat talablarini ustun qo‘yuvchi odil hukmdor sifatida gavdalanadi. Shu o‘rinda, muallif o‘z uslubiga sodiq qolgan holda yuqoridagi fikrlarni dalillovchi bir voqeani bayon etadi: “*Bir qatla bir o‘g‘li bir kishini o‘lturgan uchun qonliklarig‘a topshurub, dorulqazog‘a yibordi*” (Bobur, 2020, 230).

Sulton Husayn Mirzo obrazi ham faqat ijobiy fazilatlar majmui sifatida emas, balki murakkab, qarama-qarshi jihatlarga ega shaxs sifatida yoritiladi. Muallif uni shijoatli va mard kishi, jang maydonida benazir jasorat sohibi sifatida ta’riflar ekan, “Temurbek naslidin hech kim ma’lum emaskim, Sulton Husayn Mirzocha qilich chopmish bo‘lg‘ay” – deya uning harbiy iste’dodini alohida ta’kidlaydi. Ayni paytda uning shaxsiy zaif tomonlarini ham ochiq bayon etadi. Xususan, Sulton Husayn Mirzo taxtni egallaganidan so‘ng olti-yetti yil o‘tib, ichkilikka ruju qo‘ygani, hatto ichmagan biror kuni bo‘lmaganini ochiq e’tirof etadi. Muallif bu holatni faqat shaxsiy qusur sifatida emas, balki keng ijtimoiy muammo sifatida talqin etadi: hukmdorning bu odati o‘g‘illari, sipohlari va hatto shahar ahli orasida ham yoyilib, jamiyatda aysh-ishrat va axloqiy tanazzul kuchayganini alohida ta’kidlaydi.

Asardagi “avlodi” va “xotin-halajlari” ruknlari ham Sulton Husayn Mirzoning shaxsiy qusur va kamchiliklarini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qildirilgandek go‘yo. Ma’lumot berilishicha, Sulton Husayn Mirzo o‘g‘illari orasida Muzaffar Mirzoga alohida e’tibor va mehr bilan munosabatda bo‘lgan. Muallif uni “*Agarchi xeyli suygudek axloq va afohi ham yo‘q edi*” (Bobur, 2020, 233) – deya ta’riflaydi. Ushbu holat saroy muhitida tabiiy ravishda norozilik kayfiyatini kuchaytirib, qolgan shahzodalarning Muzaffar Mirzoga nisbatan ichki qarama-qarshilik va dushmanona munosabat shakllanishiga sabab bo‘lgan. Natijada aka-uka munosabatlarida birlik va hamjihatlik zaiflashib, oilaviy hamda siyosiy munosabat buzilgan. Bobur ushbu holatni temuriylar xonadonidagi ichki parokandalikning

muhim omillaridan biri sifatida baholaydi va uning asosiy sababchisi sifatida Sulton Husayn Mirzoning ayollaridan biri Xadichabegimni ko'rsatadi: *"Muhammad Mo'min mirzoni aning sa'yi bila o'lturdilar. Sulton Husayn Mirzoning o'g'lonlari yog'iqtilar, ko'praki muning jihatidin edi. O'zini oqila tutar edi, vale beaql va purgo'y xotun edi, rofiziya ham ekandur. Shohg'arib mirzo bila Muzaffar Husayn mirzo mundin tug'ub edi"* (Bobur, 2020, 238).

"Avlodi" ruknida Sulton Husayn Mirzoning farzandlari haqida tizimli ma'lumot beriladi. Xususan, unda hukmdorning o'n to'rt nafar o'g'li borligi qayd etilib, ularning taqdiri, hayot yo'li va ayrimlariga oid tarixiy holatlar qisqacha bo'lsa-da, muhim faktlar asosida yoritiladi. Asarda ta'kidlanishicha, ushbu shahzodalarning ko'pchiligi otasi hayotlik chog'idayoq vafot etgan. Muallif ushbu fojeaviy holatning sabablarini ham bevosita ko'rsatadi. Jumladan, Sulton Husayn Mirzoning o'n to'rt o'g'lidan atigi uch nafari nikohli ayolidan tug'ilganini, qolganlarining esa saroy muhitidagi tartibsiz oilaviy munosabatlar natijasi ekanini qayd etadi. Muallifning qarashiga ko'ra, bunday holat nafaqat hukmdorning shaxsiy obro'siga, balki farzandlarining taqdiriga ham salbiy ta'sir ko'rsatgan. Hatto bu holat o'zi, farzandlari va xalq orasida ham keng tarqalgan ma'naviy inqiroz belgisi sifatida namoyon bo'ladi:

*"Sulton Husayn mirzodek ulug' podshoh Hiriyldek islom shahrining podshohi: bu ajabturkim, bu o'n to'rt o'g'lidin uchi valadduzzino emas edi. Fisq va fujur o'zida, o'g'lonlarida va el-ulusida asru shoye edi. Ushbularning shomatidin edikim, mundoq xonvodadin yetti-sekkiz yilda bir Muhammad Zamon mirzodin o'zga osor va alomat qolmadi"* (Bobur, 2020, 239).

Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo va Boysunqur Mirzo tasvirlaridan farqli ravishda Sulton Husayn Mirzo qiyofasini yaratishda tavalludi va nasl nasabi, shakl-shamoyili, fe'l-atvori, jang va urushlari, viloyatlari, avlodi, xotinlari va kanizlari, amirlari ruknlaridan tashqari sadrlari, vazirlari, shoirlari ruknlari ham mavjud bo'lib, muallif ushbu ruknlarda ham tizimli va batafsil ma'lumot berish orqali Sulton Husayn Mirzo qiyofasini yanada mukammalroq ochib beradi. Ta'kidlanishicha, Sulton Husayn Mirzo zamonida Hirotda fozil va fozilona tafakkur sohiblari, yetuk ulamolar, nozikta'b shoirlar va mutafakkirlar jam bo'lgan: *"Sulton Husayn mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va Benazir eldin Xuroson, bataxisis Hiriyl shahri mamlu edi"* (Bobur, 2020, 250). Ana shunday boy ilmiy-adabiy muhitda Abdurahmon Jomiy kabi tasavvuf va badiiyat uyg'unligini mukammal ifoda etgan alloma, Alisher Navoiy singari turkiy adabiyot asoschisi, Mavlono Shayx Husayn, Mullozidai Mullo Usmon kabi davrning nufuzli ilm egalari faoliyat yuritgan. Ushbu tarixiy-madaniy sharoit Sulton Husayn Mirzo siymosini yanada yorqinlashtiradi: u nafaqat hukmdor, balki ilm-fan va

adabiyot ahliga homiylik qilgan, ma'naviyat ravnaqiga keng yo'l ochgan shaxs sifatida ham namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, muallif Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, Boysunqur Mirzo hamda Sulton Husayn Mirzo qiyofalarini yaratishda aniq tizimga asoslangan badiiy-ilmiy uslubdan foydalanadi. Xususan, har bir shaxs tavalludi va nasl-nasabidan boshlab, uning shakl-shamoyili, fe'l-atvori va ichki dunyosigacha, siyosiy va harbiy faoliyati, viloyatlari va saltanat boshqaruvi, shuningdek, avlodi, xotinlari va kanizlari, atrofidagi amirlari, sadrlari, vazirlari hamda shoirlarigacha bo'lgan jihatlar tizimli tarzda bayon etiladi.

Mazkur yondashuv muallifga tarixiy shaxsni tashqi belgilari bilan cheklanib qolmay, balki uning ijtimoiy mavqei, ma'naviy qiyofasi va davr bilan uzviy bog'liqligini ham to'laqonli ochib berish imkonini beradi.

Bobur obraz yaratishda yana bir izchil mezonga amal qiladiki, u qahramon siymosini asarning turli joylarida, turli davr va voqealar fonida tasvirlab, takomilga yetkazadi. Xususan, muallif bir shaxs haqida dastlabki tasavvurni qisqa tavsiflar, ayrim xarakter belgilarini ko'rsatish orqali beradi. Keyingi sahifalarda esa o'sha shaxsning fe'l-atvori, qarorlari, nutqi, ijtimoiy mavqei va tarixiy vaziyatga munosabati yangi voqealar bayoni davomida ochib boriladi. Turli yillarga oid hodisalar orasidagi bu ichki bog'liqlik obrazning psixologik chuqurlashuviga xizmat qiladi. Ayni paytda o'quvchi qahramonni uning hayot yo'li, tajribasi va ichki evolyutsiyasi bilan bir butun holda anglaydi.

Mana shunday izchil badiiy mezon asosida yaratilgan obrazlardan biri – Hasan Ya'qub siymosidir. Muallif bu qahramonni turli voqealar silsilasida bosqichma-bosqich ochib boradi. Asarda uning ismi dastlab Umarshayx mirzoning vafotidan keyingi voqealar bayonida tilga olinadi. Ta'kidlanishicha, Bobur Umarshayx mirzoning beklari va yigitlarining har biriga martabalariga yarasha viloyat va yer, amal va mansab, tirikchilik uchun maosh tayin qiladi. Hasan Ya'qubga Andijon hukumati va eshik og'aligini beradi: "*Andijon hukumati va eshik ixtiyori Hasan Ya'qubg'a muqarrar bo'ldi*" (Bobur, 2020, 29). Ushbu qarorning o'zi Hasan Ya'qubning avvaldan Umarshayx mirzo xizmatida bo'lgan, saroy muhitiga begona bo'lmagan, davlat ishlaridan xabardor, muayyan tajribaga ega shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun yetarli.

Keyinchalik, 1494-1495-yillar voqealari bayonida Bobur mirzoga Sulton Mahmud mirzodan Abdulquddusbek ismli elchi kelganligi haqida ma'lumot beriladi. Ma'lumki, qarindoshlik omili Sharq siyosiy muhitida ko'pincha ishonch uyg'otuvchi, ta'sir kuchini oshiruvchi omil bo'lgan. Muallifning ta'kidlashicha, "*Bu kelgan elchining Hasan Ya'qubqa uruqlig'i bor ekandur*" (Bobur, 2020, 38). Abdulquddusbekning Hasan Ya'qub huzuriga kelishidan ko'zlangan maqsad ham aynan shu munosabatdan foydalanish edi. U turli va'dalar, istiqbol haqidagi jozibali

takliflar orqali Hasan Ya'qubni Sulton Mahmud mirzo tomoniga og'irishga urinadi. Ushbu vaziyatda Hasan Ya'qub yumshoq javob berib, o'zini u tomonga o'tganday ko'rsatib, elchini jo'natadi. Mazkur voqea fonida u tashqi tomondan murosaga moyildek ko'rinsa-da, ichki pozitsiyasini saqlab qoladigan, vaziyatni nazorat qila oladigan, hushyor siyosiy arbob sifatida namoyon bo'ladi.

Ammo uning haqiqiy qiyofasi ushbu voqeadan besh-olti oy o'tgandan keyingi voqealar bayonida o'z aksini topadi: *“Besh-olti oydin so'ng Hasan Ya'qubning mijoz munharif bo'lib, mening yovug'imdag'i kishi-qaro bila yamon maosh qila kirishti. Ishni munga yetkurdikim, manga ruxsat berib, Jahongir mirzoni podshoh qilg'ay”* (Bobur, 2020, 38). Anglashiladiki, Hasan Ya'qub shaxsiyatidagi avvalgi sadoqat va ehtiyotkorlik o'rnini asta-sekinlik bilan manfaatparastlik, hokimiyatga moyillik va tashqi ta'sirlarga berilish hissi egallagan.

Fikrimizcha, Hasan Ya'qubning vafoti bayonini uning shaxsiyatini badiiy-axloqiy jihatdan to'liq ochib beruvchi muhim nuqta sifatida talqin etish o'rinlidir. Ya'ni Hasan Ya'qub Boburga xiyonat qilgani holda, oxir-oqibat o'zi ham o'z askari tomonidan otilgan o'q tufayli halok bo'ladi: *“Qorong'u kechada o'z elining o'qi Hasan Ya'qubning qochorig'a tegib, qochoridin burunroq o'z amalig'a giriftor bo'ldi.*

*Chu bad kardi, mabosh emin zi ofot,*

*Ki vojib shud tabiatro mukofot”* (Bobur, 2020, 39).

Shu jihatdan, Hasan Ya'qubning vafoti uning shaxsiy qusurlarini ochib beruvchi yakuniy nuqta vazifasini bajaradi. Qahramonning butun hayot yo'li – dastlabki ehtiyotkorlikdan tortib, keyingi xiyonat va siyosiy og'ishlargacha bo'lgan jarayon aynan shu fojeali yakun bilan mantiqan tutashadi. Natijada, Hasan Ya'qub obrazi asarda to'laqonli, murakkab va hayotiy badiiy qiyofa sifatida mukammal shakllanadi.

Bobur Umarshayx mirzoning beklari va yigitlarining har biriga martabalariga yarasha viloyat va yer, amal va mansab, tirikchilik uchun maosh tayin qilgan paytda Ali Do'st tag'oyiga Marg'inon beriladi. Anglashiladiki, Ali Do'st tag'oyi davlat ishlaridan xabardor, mas'uliyatli, ishonchli beklardan bo'lgan. Uning Bobur mirzoga sadoqati va vatanparvarligi asarning 1494-1495-yillar voqealari bayonida keltirilgan quyidagi parchada yorqin ifodasini topadi: *“...Hasan Ya'qubning mijoz munharif bo'lib, mening yovug'imdag'i kishi-qaro bila yamon maosh qila kirishti. Ishni munga yetkurdikim, manga ruxsat berib, Jahongir mirzoni podshoh qilg'ay... aning bu fikridin bori el voqif bo'lub edilar. Xoja Qozi va Qosim Qavchin va Ali Do'st tag'oyi va Uzun Hasan va yana ba'zi davlatxohlar mening ulug'onam Esan Davlatbegimning qoshida yig'ilib so'zni bu yerga qo'ydilarkim, Hasan Ya'qubni ma'zul qilib, fitnasig'a taskin berilg'ay”* (Bobur, 2020, 38).

1497-1498-yillar voqealari bayonida esa Ali Do‘st tag‘oyi shaxsiyatining mas‘uliyatsizlik, irodasizlik va manfaatparastlik kabi qirralari ochib beriladi. Ya‘nikim, Bobur mirzo Samarqandga otlanganda, Andijonga Ali Do‘st tag‘oyi qo‘yiladi. Samarqandda mirzoning salomatligi yomonlashadi. Shunchalikki, “*to‘rt kungacha tilim tutuldi, og‘zimg‘a paxta bila suv tomizurlar erdi*” (Bobur, 2020, 78). Bu vaziyatdan xabar topgan Ali Do‘st tag‘oyi besaranjom bo‘lib, muxoliflarni ichkariga qo‘yib, ahd va shart qilib, qal‘ani beradi. Ali Do‘st tag‘oyining bu xatti-harakatidan shaxsiy omonlik va manfaatni davlat manfaatidan ustun qo‘yganini anglash qiyin emas. Bobur mirzo esa bu vaziyatni “*Zaxiradin va urushur kishidin qo‘rg‘onda hech kamlik yo‘q edi. G‘oyatash ul munofiqli namakxarom mardakning nomardlig‘i edi*” (Bobur, 2020, 79) – deya baholaydi.

Ushbu voqeadan bir yil o‘tib, Ali Do‘st tag‘oyi o‘zining Yo‘lchuq ismli navkarini mirzo Bobur huzuriga yuboradi. Shu maqsaddaki, “*agarchi mendan azim gunohlar sodir bo‘ldi, vale umidim borkim, inoyat qilib gunohimni bag‘ishlab, beriga mutavajjih bo‘lsalar, Marg‘inonni topshirub bir nav‘ qulluq va hizmatgorliq qilg‘aymen, gunohim arib hijobim raf‘ bo‘lg‘ay*” (Bobur, 2020, 88). Bobur bu xabar kelishi bilan hech andisha qilmay, o‘ylab o‘tirmay Marg‘inonni olish niyatida yo‘lga tushadi. Marg‘inon qo‘rg‘oni darvozasiga yetganda Ali Do‘st tag‘oyi darvozani ochmay, ahd iltimos qiladi. Ahd va shart qilingandan so‘ng darvozani ochib, mulozamat qiladi.

Fikrimizcha, Ali Do‘st tag‘oyining ushbu xatti-harakatlari uning ma‘lum darajada makkorlik va hisob-kitobga asoslanganini ko‘rsatadi. O‘z aybini anglagan, gunohini tan olgan, kechirim so‘ragan bo‘lsa-da, u tashabbusni o‘z qo‘lida saqlab qolishga urinadi: darvoza yopiq, ahd talab qilinadi, shundan keyingina mulozamat boshlanadi.

Keyingi voqealar silsilasida Ali Do‘st tag‘oyi shaxsiyatida ilgari faqat ishora tarzida ko‘ringan ushbu qusur tobora aniq namoyon bo‘la boradi. Muallif uning har bir siyosiy qadami tasodifiy emas, balki puxta hisob-kitobga asoslanganligini ko‘rsatadi. Xususan, Ahmad Tanbal Marg‘inon ustiga yurish qiladi. Jahongir mirzoni yoniga solib, Pishxoron qo‘rg‘onining orqa tomoniga tushadi. Bobur mirzo esa Pishxoronning bir shar‘iy berisidagi tepalikka tushadi. Jang muqarrar bo‘lgan bir paytda “*Ali Do‘st va Qanbar Ali Salloh tavobe‘ va lavoqihni bila bo‘lg‘aylar, yarash so‘zini orag‘a sola kirishtilar*” (Bobur, 2020, 105). Bu ikki ulug‘ bekning so‘zlariga quloq solib, sulh tuziladi. Muallifning ta‘kidlashicha, “*Chun ikki ulug‘ bek bu ikki mardak edi, agar bularning so‘ziga quloq solmay sulh bo‘lmasa, o‘zga ehtimollari ham bor edi*” (Bobur, 2020, 105). Ya‘ni vaziyat taqazosiga ko‘ra, manfaatlar o‘zgarishi bilan ularning qarorlarida ham o‘zga ehtimol paydo bo‘lishi mumkinligi ehtiyotkorona eslatilmoqda.

Sulh tuzilgandan keyin Jahongir mirzo Axsiga, Bobur mirzo Andijonga yo‘l oladilar. Andijonga kelgandan keyin esa Ali Do‘stning fe‘l-atvori tamoman o‘zgaradi. Bobur mirzo bilan darbadarlik va mashaqqatli harbiy safarlarda birga bo‘lgan kishilarga yomon munosabatda bo‘la boshlaydi. Avval Xalifaga ruxsat beradi. Undan so‘ng Ibrohim soru va Vays Log‘ariyni begunoh va asossiz tuttirib, talatib, viloyatlaridan ayirib jo‘natib yuboradi. Ali Do‘st va o‘g‘li Muhammad Do‘st birgalikda ko‘ngillari nimani tilasa, o‘shani qiladilar. Ayni paytda Bobur mirzo ham ularga hech nima deya olmasdi, chunki ularning ortida Tanbaldek dushman bor edida: *“Ajab nozuk mahalli edi. Hech nima deb bo‘lmas edi. Bu otaliq, o‘g‘ulluqtin ul muddatda g‘alaba xorliqlar tortildi”* (Bobur, 2020, 106).

Shunday qilib, yilma-yil izchil bayon etilgan voqealar silsilasi davomida Ali Do‘st tag‘oyi qiyofasi mukammal darajada yoritiladi. Muallif vaqt omilidan mahorat bilan foydalanib, har bir tarixiy voqeani qahramon xarakterini ochishga xizmat qiladigan badiiy-daliliy vositaga aylantiradi.

Adabiyotshunos olimlar A.Zunnunov va N.Hotamov o‘z tadqiqotlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradilar: *“Asarda tasviriy usulning yana bir ko‘rinishi boshqalar orqali berilgan xarakteristikadir, ya‘ni yozuvchi badiiy asardagi obrazlarga faqat o‘zigina emas, balki boshqalar orqali ham xarakteristika beradi. Ma‘lumki, har bir kishi atrof-muhit bilan, kishilar bilan aloqada hayot kechiradi, ulardan ta‘sirlanadi, o‘rganadi va o‘z navbatida o‘zi ham ularga ta‘sir ko‘rsatadi. Atrofida gilarining bildirgan fikrlari, xarakteristikalari unga bo‘lgan munosabatlarini bilib olishda muhim rol o‘ynaydi”* (Zunnunov A., Hotamov N. 1982, 48).

“Boburnoma” asarida ham obraz yaratish jarayonida ushbu xususiyat yaqqol namoyon bo‘lishi kuzatiladi. Muallif ayrim shaxslarning fe‘l-atvori, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasini ularning boshqa qahramonlar bilan munosabati, muayyan vaziyatlardagi xatti-harakati hamda ular haqidagi baholar vositasida ochib beradi. Xususan, Xoja Mavlonoyi qozi, Abu Yusuf, Zuhra begim kabi shaxslar tasvirida muallif ularning ichki dunyosini to‘g‘ridan-to‘g‘ri izohlashdan ko‘ra, boshqa qahramonlar bilan bo‘lgan munosabatlari va voqealar fonida yoritishni afzal ko‘radi.

Bobur Xoja Mavlonoyi qozini *“Sulton Ahmad qozining o‘g‘li va Shayx Burhoniddin Qilichning naslidur, ona tarafidin Sulton Ilik Moziyg‘a yetar, aning xonavodalari ul viloyatga marje va shayxulislom yo‘sunluq bo‘la kelgandur”* (Bobur, 2020, 27) – deya ta‘riflar ekan, bu ifoda orqali avvalo, nafaqat bir shaxsga, balki butun bir sulola va u mansub bo‘lgan ijtimoiy-ma‘naviy muhitga xos fazilatlarni umumlashtiradi. Ikkinchidan, xalq fikrini obraz yaratish vositasi sifatida qo‘llab, Xoja Mavlonoyi qozining shaxsiy qiyofasini ijtimoiy baho bilan mustahkamlaydi. Shuningdek, Xoja Mavlonoyi qozining “shayxulislom yo‘sinida” ekanligini ta‘kidlash orqali uning diniy-siyosiy ta‘sir doirasini ham ko‘rsatadi.

Demakki, Xoja Mavlonoyi qozi obrazi muallif nutqidan ko‘ra, xalqning umumiy qarashi va munosabati orqali yanada teran va aniq ochib berilgan.

Zuhrabegi obrazida ham xuddi shu xususiyat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Asarda bayon etilishicha, Sulton Ali mirzo Samarqandni Shayboniyxonga beradi. Ushbu voqea uning onasi Zuhrabegining beaqligi tufayli sodir bo‘ladi. Xususan, Zuhrabegi Shayboniyxonga quyidagi mazmundagi xabar bilan maxfiy kishi yuboradi: agar Shayboniyxon Zuhrabegini nikohiga olsa, o‘g‘li unga Samarqandni beradi, otasining viloyatini olgandan so‘ng esa Shayboniyxon Samarqandni Sulton Ali mirzoga beradi. Shayboniyxon Zuhrabegining va‘dasi bilan Samarqandga keladi va shaharni egallaydi. Samarqandni olgandan keyin Shayboniyxon Zuhrabegiga “...bir zarra parvo ham qilmadi, balki g‘uma-g‘unchachicha ham ko‘zga ilmadi” (Bobur, 2020, 112).

Mazkur epizodda Zuhrabegi obrazi Shayboniyxonning xatti-harakatlari va voqealar oqimi orqali fosh etiladi. Aynan shu bilvosita tasvir usuli Zuhrabegiga xos salbiy jihatlarni yanada ta‘sirchan va ishonarli ko‘rsatishga xizmat qiladi. Uning siyosiy vaziyatni anglamasligi, shaxsiy manfaat va erga tegish istagini davlat va o‘g‘il taqdiri bilan bog‘liq mas‘uliyatdan ustun qo‘yishi obrazning beaqligi va uzoqni ko‘ra olmasligini namoyon etadi. Zuhrabegining Shayboniyxonga yuborgan xabari esa uning ayyorona rejasidan ko‘ra, aslida ma‘naviy zaifligini va badbaxt ruhiy holatini ochib beradi. Bu jarayonda Shayboniyxon Zuhrabegining ichki dunyosini ochib beruvchi “sinovchi kuch” vazifasini bajaradi. Uning va‘dalarga bepisandligi, Zuhrabegini hatto haramdagi oddiy cho‘ri-xizmatkor darajasida ham e‘tirof etmasligi Zuhrabegining siyosiy o‘yinlarda qanchalik ojiz ekanini fosh etadi.

E‘tiborli jihati shundaki, bu usul orqali faqatgina ikkinchi darajali qahramonlarning emas, balki muallif shaxsining o‘zi ham badiiy jihatdan ochiladi. Fikrimiz isboti sifatida quyidagi parchani keltirishning o‘zi kifoya: “*Manga Sulton Mahmud mirzodind Abdulquddusbek otliq elchi keldi. Ulug‘ o‘g‘li Sulton Mas‘ud mirzog‘a og‘asi Sulton Ahmad mirzoning Oqbegim otliq ikkinchi qizini to‘y va oyin bila olg‘on. Sochiqni kelturdi: oltundin va kumushdin bodomlar va pistalar qilib edilar*” (Bobur, 2020, 38).

Ushbu parcha tashqaridan mayda tafsilotdek ko‘rinsa-da, mazmunan muallif shaxsini tavsiflovchi muhim badiiy ishorani o‘zida mujassam etadi, ya‘ni tortiq yuboruvchining munosabati orqali uning shaxsiyati ochiladi. Unga oddiy oltin va kumush tangalar yuborilmay, nafis, did bilan oltin va kumushdan tayyorlangan bodom va pistalar hadya etilishi Bobur mirzoning madaniyatli, nozikta‘b va estetik did egasi sifatida e‘tirof etilganligini anglatadi.

Shuningdek, bu epizod orqali Bobur mirzoning atrofdagilar nazaridagi mavqei ham namoyon bo‘ladi. Tortiq yuboruvchilar uning shaxsiy didini hisobga olgan holda sovg‘a tayyorlashlari Bobur mirzoga bo‘lgan hurmat va e‘tiborning

yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu holat Boburning moddiy boylikdan ko'ra ma'naviy-estetik qadriyatlarni qadrllovchi shaxs ekanini ham bilvosita tasdiqlaydi.

### **XULOSA**

Boburnomada tarixiy shaxslar qiyofasini yoritish aniq mezonlar asosida amalga oshiriladi. Muallif har bir shaxsni tasvirlashda uning nasl-nasabi, siyosiy faoliyati, shaxsiy fazilatlari, axloqiy qiyofasi hamda tashqi ko'rinishini uyg'un holda berishga intiladi. Ayniqsa, tarixiy shaxslarni baholashda muallifning xolislikka intilishi, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini barobar yoritishi asarning ilmiy-badiiy qimmatini oshiradi. Boburning ana shu haqqoniylik va badiiy aniqlikka asoslangan uslubi uning yuksak badiiy tafakkuri va chuqur psixologik kuzatuvchanligidan dalolat beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Umurov, H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002. – 133 b.
2. Bobur, Z. M. Boburnoma. – Toshkent: Ijod Press, 2020. – 592 b.
3. Adizova, I. Bobur tafakkurida mavjlangan daryo: monografiya. – Toshkent: Bookmany Print, 2023. – 83 b.
4. Bobur, Z. M. Boburnoma: tabdil. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 368 b.
5. Qudratullayev, H. "Boburnoma"ning tarixiy-adabiy va uslubiy tahlili (Navoiy, Bobur, Xondamir va Vosifiy nasrining qiyosiy tahlili asosida): filol. fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent, 1998. – 280 b.
6. Umurov, H. O'zbek adabiyotida badiiylik mezonlari va ularning maromlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – 355 b.
7. Zunnunov, A., Hotamov, N. Adabiyot nazariyasidan qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1982. – 208 b.

### **REFERENCE:**

1. Kh. Umurov. (2002). Literary theory. T.: Sharq. p. 133.
2. Z. M. Babur. (2020). Baburnama. T.:Ijod press.
3. I. Adizova. (2023). A river in Babur's mind. Monograph. T.: Bookmany print. p. 83.
- 4.Z. M. Babur. (2008). Baburnama. Change. T.: Teacher.
- 5.Qudratullayev H. (2018). Historical-literary and stylistic analysis of "Baburnama" (based on a comparative analysis of the prose of Navoi, Babur, Khondamir and Vosifi). Ph.D. dissertation. ТОШКЕНТ.
6. Umurov H. (2018). Criteria of artistry in Uzbek literature and their rhythms. - ТОШКЕНТ: ЎЗМУ, P. 355.
7. Zunnunov A., Khotamov N. (1982). A manual on literary theory. Tashkent: O'qituvchi, 208 p.